

**ALEKSANDR FAYNBERGNING IJODI HAMDA "VATAN"
SHE'RINING TAHLILI.****Axtamova Aziza Otabek qizi***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Koreys filologiya yo'nalish talabasi**Azizaotabekofna@gmail.com**+99895 696 47 37*

Annotatsiya: O'zbek yozuvchilari asarlari bilan har bir mamlakatning qalbidan joy olib kelgan. Dunyoda o'z o'rniga ega yozuvchilar va shoirlar ko'p. Ulardan biri rus, o'zbek adabiyotining atoqli arbobi Aleksandr Faynberg ham o'z hissasini qo'shgan. Faynberg she'rlari va tarjimalari bilan o'zbek, rus va boshqa xalqlar qalbidan joy olgan. Ushbu maqolada rus shoiri va O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadeyevich Faynbergning hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida yozilgan. O'zbek xalqining yuragidan o'rin egallagan rusiyabon shoirning hayoti va ijodi, shuningdek "Vatan" she'rining talqini beriladi. "Vatan" she'ri orqali yozuvchi yosh shoirlarga ona yurtning qanchalik aziz ekanligini, boshqa yurtlar bilan taqqoslash hattoki yevropani aziz deb hisoblashi yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Vatan" she'ri, ruhiy kechinma, ona yurt, badiiy film, tarjimon.

Aleksandr Faynberg rus shoiri, tarjimon, ssenariynavis, O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri. Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentda tug'ilgan. Uning ota-onasi 1937-yil Novosibirskdan ko'chib o'tgan. Shoirning otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891-1971), onasi Anastasia Alexandrovna (1904-?). Sobiq Jukovskaya ichida uning bolaligi o'tgan. Yetti yillik maktabni tugatgandan so'ng Aleksandr Faynberg Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirdi. Toshkent topografiya kollejiga o'qishga kirganidan so'ng, Faynberg geolog sifatida butun mamlakat bo'ylab sayr qilib yurdi va uning go'zal tabiatga bo'lgan muhabbati uyg'ondi. Aynan shu davrda uning "Velosiped yo'lakchasi" nomli birinchi kitobi nashr etildi. Texnikumni tugatgandan so'ng Tojikistonda armiyada xizmat qildi. Keyin Toshkent universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) tugatdi, u yerda filologiya fakultetining sirtqi jurnalistika bo'limida o'qidi va talabalar ko'p tirajida ishladi. 1961-yilda Inna Glebovna Kovalga uylandi. O'zbekistonning she'riy osmonida Aleksandr Faynberg mubolag'asiz eng yorqin nuroniylaridan biri hisoblanadi. U Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan 13 ta she'riyat to'plamining muallifi. "Etyud" (1967), "Soniya" (1969), "She'rlar" (1977), "Ijobat" (1982), "Qisqa to'lqin" (1983), "Yoyma to'r" (1984), "Erkin sonetlar" (1990) kabilar shular jumlasidan. U Alisher Navoiy va ko'plab zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning sherlari "Smena", "Navbat", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "SHarq yulduzi", "Yangi Volga" jurnallarida va xorijiy mamlakatlar: AQSH, Kanada va Isroil davriy jurnallarida chop etilgan. Faynberg 1965-1969-yillarda O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lgan. U rusiyzabon kitobxonlarga ko‘plab o‘zbek shoirlarning asarlarini tarjima qilib berdi. Moskvada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” poemasi, Toshkentda “Oqqushlar galasi” nomli o‘zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi nashr etildi. 1999-yilda “Paxtakor” futbol jamoasining aviakashzada halok bo‘lganing 20 yilligiga uning ssenariyasi bo‘yicha “ularning osmondagi stadioni” filmi suratga olingan, unda Aleksandr Faynbergning 1979-yilgi paxtakorlar haqidagi so‘zlariga qo‘shiq yangraydi. 2004-yilda shoir Faynberg Rossiya prezidenti Farmoni bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish, rus tili va rus madaniyatini saqlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun ushbu yuksak mukofotga sazovor bo‘ladi. Uning qalamiga 7 badiiy film ssenariyasi tegishli, eng muhimlari “Ko‘k osmonning o‘zida”, “Issiq quyosh ostidagi uy”, “Qandahor ostida yonib ketgan”, shuningdek, u 18 ta animation film ssenariylari muallifi.

“Vatan”

Quyoshli, to‘rtburchak dalalardan to
Tizma tog‘largacha cho‘zilgan Vatan-
Yo‘llarning girdida bo‘lib girgitton
Gumbazdek teraklar turarlar qator.

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,
Teodolit ko‘tarib, o‘lchadim tanob.
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim-
O‘zbekistondadir xokim, turobim.
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

Mag‘rur parvoz etar burgut falakda.
O‘t tishladim. Labda ko‘z yosh.
Bu dam ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda

Ushbu she‘rda Vatan tasviri orqali tabiat va milliy iftixor go‘zalligi ifodalanmoqda. Har bir misra orqali ona yurtning o‘ziga xos manzaralari va undagi quvonchli, samimiy muhit tasvirlanadi. "Quyoshli, to‘rtburchak dalalardan to" -Bu satr dalalarning tartibli va unumdor ekin maydonlariga ishora qiladi. Quyoshli kunlar esa Vatan iqlimining qulayligini hamda hayotning barqarorligini ko‘rsatadi. "Tizma tog‘largacha cho‘zilgan Vatan"-Tog‘lar ulug‘lik va mustahkamlik ramzi sifatida tasvirlanmoqda. Bu yurtning kengligi va go‘zalligi haqida gapiradi. "Yo‘llarning girdida bo‘lib girgitton"-Yo‘llar Vatanni birlashtiruvchi aloqalar sifatida tasvirlanadi. Ularning "girgitton" bo‘lishi harakat va hayotning davomiyligini bildiradi. "Gumbazdek teraklar turarlar qator."-Teraklar, ular qator tizilganligi bilan Vatan manzarasining ajralmas qismi bo‘lib, gumbazga o‘xshatilishi ulug‘lik va

go‘zallikni ifoda etadi. She‘r yurtning tabiat go‘zalligini, unumdorligini va o‘ziga xosligini madh etadi. Undagi tabiiy boyliklar, mehnat va barqaror hayotning tasviri milliy faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Shu bilan birga, Vatan manzaralari orqali xalq hayoti va mehnatining armoni ham yoritilib, bu yerga bo‘lgan sevgi yuksak ifoda etiladi. "Dalalarni kezdim qadamma-qadam, Teodolit ko‘tarib, o‘lchadim tanob." Bu satrlar shoirning oddiy inson sifatidagi tajribasini aks ettiradi. U dalalarda yurib, mehnat qilganini, Vatan zaminining har qarichini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, qadrlaganini ko‘rsatadi. Teodolit ko‘tarib yurish ilmiy izlanish yoki dalalarni o‘lchash jarayoniga ishora qilsa-da, bu ma‘noda ramziy ma‘no yashirin: shoir nafaqat zaminni, balki xalqning hayotini va mehnatini ham "o‘lchab", his qilgan. "Loysuvoq uylarda simirdim chalob, Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom." Bu misralarda xalq bilan birligining sodda, lekin chuqur timsoli berilgan. Loysuvoq uylar va ochiq hovlilar xalqning samimiyligini, ochiqqligini, mehmondo‘stligini ifodalaydi. Chalob ichish esa xalqning oddiy hayoti bilan birlashishni anglatadi. Shoir o‘zini Vatan va xalqining ajralmas qismi sifatida ko‘radi. "Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim" O‘zbekistondadir xokim, turobim." Bu yerda shoir Vatani "mushfiq", ya‘ni mehribon deb ataydi. O‘zbekiston uning nafaqat tug‘ilib o‘sgan joyi, balki uning ruhiy va jismoniy ildizi ekanini aytadi. "Xokim, turobim" so‘zlari orqali inson o‘z Vatani bilan bog‘liq bo‘lishini, uning tuprog‘i va vujudining ajralmasligini ifoda qiladi. "Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham." Shoirning bu so‘zlari milliy g‘urur va o‘ziga xoslikni aks ettiradi. U g‘arb madaniyatini tan olishdan ko‘ra o‘z Vatani qadriyatlarini, madaniyati va mehnatkash xalqini afzal ko‘radi. Bu satrlar milliy o‘zlik va Vatanga sadoqat ruhini tarannum etadi. "Mag‘rur parvoz etar burgut falakda." Burgut erkinlik, mag‘rurlik va kuchning ramzi. Shoir burgutni timsollashtirish orqali O‘zbekistonni yoki xalqning jasorati va mustaqilligini madh etmoqda. "O‘t tishladim. Labda ko‘z yosh." Bu satrlarda shoir o‘z hayotidagi og‘ir va shirin damlarni ifoda etadi. "O‘t tishlash" mashaqqatlarni, lekin shu bilan birga kuch va qat‘iyatni bildiradi. Labda ko‘z yosh esa bu og‘irlikning ichidagi ichki kuch va qoniqishni ko‘rsatadi. "Bu dam ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda." Shoir hayotning mashaqqatlari va yutuqlarini bir xil qabul qilgan. U dardni ham, baxtni ham yuragi bilan his qilgan va shundan o‘zining haqiqiy insoniyligiga erishgan. Shoir ushbu she‘rda Vatan tuyg‘usini, mehnatning qadriyatini, xalq bilan birligini va milliy o‘zlikni madh etadi. Oddiy hayotiy holatlarni tasvirlash orqali o‘z Vatanga bo‘lgan sevgi va hurmatini chuqur his-tuyg‘ular bilan bayon qiladi. Ushbu she‘r o‘z Vatani bilan faxrlanadigan, milliy g‘urur va samimiyatni yuksak qadrlaydigan shaxsning ichki dunyosini yoritadi. Shoir xalqining ochiq ko‘ngilli va mehmondo‘stligini alohida qadrlaydi va milliy madaniyatni dunyoga yoyiladigan nur sifatida ko‘rsatadi.

Shoir, tarjimon, ssenariynavis Aleksandr Faynberg 2009-yil 14-oktabr kuni Toshkent shahrida vafot etdi. Aleksandr Faynberg o‘z vatanining haqiqiy vatanparvarligi timsoli. Faynbergning xotirasi qalbimizda mangu qoladi. Uning she‘riy to‘plamlari hozirgi kungacha qo‘lma– qo‘l bo‘lib kelmoqda, matnlari oraqli qo‘shiqlar kuylanmoqda va ssenariylari asosida filmlar, multfilmlar yartilgan. Uning hayoti bilan bog‘liq sanalar har yili nishonlanadi, shuningdek, she‘riy kechalar va tadbirlar o‘tkaziladi. Shoir xotirasini

abadiylashtirish maqsadida adiblar xiyobonida Faynbergning haykali o‘rnatildi. Bundan tashqari, Aleksandr Faynberg nomidagi stipendiya ham ta’sis etildi. Mohir tarjimon, ssenariynavis Aleksandr Faynberg qalbimizda mangu qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurolboyeva M. YURAGI O ‘ZBEKCHA URGAN RUS SHOIRI //Journal of universal science research. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 127-131
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>